

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV KOMPONENTLAR VA ULARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Akramova S.R.,

BDU Boshlang'ich ta'lif nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Bugungi kunda so'z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning keng kontekstda funksiyaga kirishuvi nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi kengkuzatilmoxda. Buo'rindalisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, turli munosabat o'rnatuvchi va estetik vazifalarini qo'shimcha (konnotativ) ma'no, pragmatik ma'no sifatida ham talqin qilina boshlandi. Maqolada zamonaviy tilshunoslikda konnotativ komponentlar, pragmatik, madaniy konnotativ komponentlar, ularning pragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratdik.

Kalit so'zlar: konnotatsiya, pragmatik komponentlar, madaniy konnotativ komponentlar, so'z birikmalari, semantik struktura.

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog' idir.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'lqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. Tilshunoslikning barcha bo'limlarida o'rganilishi mumkin bo'ladigan lingvistik birlik leksemadir. Zero, leksema, nafaqat, lug'aviy birlik, balki morfologik sathda sintaktik aloqani vujudga keltiradigan muhim vositadir. Bu holatlar so'zning denotativ (atash) ma'nosini bilan bog'liq ravishda yuz beradi. So'zning denotativ ma'nosini uning til tizimida muhim lug'aviy birligini anglatса, shu ma'no bilan uzviy bog'liq holda vujudga keladigan konnotativ ma'no so'zning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uning uslubiyatning ham muhim tekshirish obyekti ekanligini namoyon etadi. Nutq uslublarida qo'llanilishi nuqtayi nazaridan so'zlar: umumiste'mol so'zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bo'lgan so'zlar kabi ikki guruhga ajratiladi.

1. Umumiste'mol so'zlar mohiyat jihatidan til lug'at tarkibining asosini

tashkil qiladi va barcha nutq turlarida tayanch lug‘aviy birlik sifatida qo‘llaniladi.

2. Nutqning ayrim turlari uchun ham xoslangan so‘zlar bo‘lib, ular uslubiy jihatdan chegaralangan bo‘ladi. Masalan, kitobiy so‘zlar kitobiy nutq uchun xoslangan bo‘lsa, og‘zaki nutqning ham uslubiy xoslangan so‘zlari mavjud.

Shuningdek, ilmiy terminlar ilmiy nutq uchun, rasmiy atamalarning rasmiy nutqqa xosligi, eskirgan so‘zlar, dialektizmlar, argo va jargonlarning, asosan, badiiy nutqda qo‘llanilishi so‘zlarning nutqlararo taqsimlanishi lingvistik ejtiyoj natijasi ekanligidan dalolat beradi. Keltirilgan mulohazalar so‘z, uning ma’nosini va uslubiy xoslanganlik munosabatlari hali chuqur tadqiqotlar olib borilishi uchun asos bo‘la oladi. Matn tarkibida leksemalar asl lug‘aviy ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda qo‘llanish xususiyatlariga ham ega. Ma’no ko‘chishi orqali vujudga keladigan ma’no 329 so‘zning hosila ma’nosini hisoblanadi. So‘zning hosila ma’nosini matn orqali anglashiladi. Shunday ekan, so‘z ma’nosini asl yoki hosila ma’no ekanligi lug‘aviy birliklarning matniy qo‘llanilishi asosida izohlash mumkin. Barcha lug‘aviy birliklar singari umumiste’mol so‘zlar ham turli ma’nolarda qo‘llaniluvchi vositalardan hisoblanadi. Ayni paytda pragmatik komponentlar qo‘sishimcha (konnotativ) ma’no anglatuvchi so‘zning semantik strukturasi tarkibiga ham kirishi mumkin. Bu holat so‘zning assotsiativ belgilari mavjud bo‘lganida yoki o‘xhash va farqli tomonlari tahlil qilinganda ko‘proq sezildi.

Pragmatik ma’noni (konnotatsiyani) nutq jarayonida qo‘llanilishi va qo‘sishimcha, ko‘pincha noverbal ifodalangan ma’nolarni aniqlash tamoyillarini belgilash tilshunoslikdagi kommunikativ-funksional paradigmanning yanada rivojlanishiga olib keldi. So‘z va lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik (konnotativ) ma’noni keng nutq va matn miqyosida o‘rganilishi murakkab va serqirra bu tushunchani ilgari paytlarga nisbatan yanada kengroq ma’noda qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda leksik birlikning semantik strukturasidagi qo‘sishimcha ma’no (pragmatik, konnotativ ma’no) konnotatsiyani vujudga keltiruvchi matnlarlar, tagma’no ifodalovchi alohida leksemalar, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, iboralar, maqollar asosida tadqiq qilinmoqda. Shunday qilib pragmatik tahlil asosida konnotativ ma’noning ichki va tashqi pragmatik belgilari aniqlanadi. Konnotatsiyaning ichki belgilari leksema mazmuni strukturasidagi pragmatik komponentlarning mavjudligi bilan bog‘liq. Tashqi pragmatik belgilar esa, aniq kommunikativ aktdagi muloqot vaziyati, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning xarakteri, ularning fon bilimlarining bir-birlariga yaqinligi, muloqot presuppozitsiyasi kabi ekstralengvistik omillar orqali aniqlanadi. Shunga ko‘ra konnotatsiyaning turli tiplari: bir tomondan so‘z orqali ifodalanib, uning semantik strukturasini kengaytiruvchi konnotatsiya va ikkinchi tomondan matn orqali ifodalanib, tagma’no hosil qiluvchi konnotatsiyalar farqlanadi.

Matnni va nutqni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil etish muloqot jarayonidagi nutq odobi qoidalarini egallash, muloqot jarayonini madaniy tashkil qilish, suhbat jarayonida rozilik va norozilik, muloqot va odob me’yorlariga rioxha qilish suhbatdosh shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini va bazaviy bilimlarini hisobga olish kabi amaliy muloqot ko‘nikmalarini shakllanishiga olib keladi. Boshqa tomondan pragmatika til vositalaridan unimli foydalanish

qoida va parametrlarini belgilaydi. Oxirgi yillarda leksik birlik semantikasining strukturasi, ayniqsa uning premet-mantiqiy mazmunini ifodalovchi semantik komponentlarining nutqda ifodalanishi turli soha tadqiqotchilarining alohida diqqat-e'tiborini tortmoqda. Shunday masalalardan biri leksik birlik semantik strukturasidagi pragmatik xususiyatlarning konnotativ komponentlar orqali ifodalanishidir.

Bugungi kunda leksik birlikning semantik strukturası-tuzilishidagida qo'shimcha ma'no yoki pragmatik, konnotativ ma'no deb atayotganimiz konnotatsiyani vujudga keltiruvchi kontekstlar, tagma'no ifodalovchi alohida so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birlıklar, iboralar, maqollar asosida tadqiq qilinmoqda. Shunday qilib, pragmatik tahlil asosida konnotativ ma'noning ichki va tashqi pragmatik belgilari aniqlanadi. Konnotatsiyaning ichki belgilari so'z mazmuni strukturasidagi pragmatik komponentlarning mavjudligi bilan bog'liq. Tashqi pragmatik belgilari esa, konkret kommunikativ aktdagi muloqot vaziyati, suhbatdoshlar o'rtaisdagi munosabatlarning xarakteri, ularning fon bilimlarining, ya'ni ulardagi mavjud ma'lumoti, bir-birlariga yaqinligi, muloqot presuppozitsiyasi kabi ekstralengvistik omillar orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra konnotatsiyaning turli tiplari: bir tomondan so'z orqali ifodalanib uning semantik strukturasini kengaytiruvchi konnotatsiya va ikkinchi tomondan matn orqali ifodalanib, tagma'no hosil qiluvchi konnotatsiyalar farqlanadi. Matnni va nutqni pragmatik nuqtai nazardan o'rganish muloqot jarayonidagi nutq odobi qoidalarini egallash, muloqot jarayonini madaniy tashkil qilish, suhbat jarayonida rozilik va norozilik, muloqot normalariga rioya qilish suhbatdosh shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini va fon bilimlarini hisobga olish kabi amaliy muloqot ko'nkmalarini shakllanishiga olib keladi. Boshqa tomondan pragmatika til vositalaridan unimli foydalanish qoida va mezonlarlarini belgilaydi. E.S.Aznaurova o'z tadqiqotida tilshunoslikda ilk marotaba kommunikativ pragmatik vaziyatning asosiy parametrlariga asoslanib so'zning lingvopragmatik tahlili prinsiplarini nazariy jihatdan asoslab berdi. Olima ular qatoriga quyidagilarni kiritadi: -kommunikativ akt ro'y beradigan vaziyat va joy; -muloqot mavzusi va maqsadi; - muloqot ishtirokchilarining etik, individual xarakteristikasi; -muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabat [Aznaurova, 1988: 38]. V.I.Zabotkina bu nazariyani yanada rivojlantirib tilning lug'at tarkibini pragmatik nuqtai nazardan o'rganishda leksik va frazeologik birlıklarni jo'yali yoki o'rinni qo'llashda muloqot vaziyatini va gapiruvchi shaxsning muloqot maqsadini hisobga olish nazariyasini ishlab chiqdi. Bu yo'nalish tilning leksik tizimini o'rganishda yangicha yondashuv: funksional leksikologiyaning shakllanishiga olib keldi. [Zabotkina, 1989, 6]. Y.D.Apresyan ta'bıricha lisoniy pragmatika atalmish yangicha tushuncha lisoniy birlik zamiridagi (leksema, affiks, grammema, sintaktik konstruksiya orqali ifodalanadigan gapiruvchi shaxsning atrof borliqqa, axborot mazmuniga, tinglovchiga (kitobxonga) munosabati tushuniladi [Apresyan, 1995:136]. Masalan, "fransuzcha initiateur so'zining tashabbuskor, novator, tarbiyachi ma'nolari nol pragmatik xarakteristikaga ega bo'lsa, bu so'z konnotativ ma'noda biror yomon (salbiy) ishni boshlovchisi ma'nosiga ega bo'lib, so'z ifodalaydigan pragmatik ma'no salbiy xarakteristikaga ega bo'ladi" [Ko'chiboev, 1915: 26]. Shunday qilib

so‘z semantikasiga qo‘sishimcha yangi pragmatik ma’no, ya’ni yangi ma’no ottenkasi qo‘shiladi. Shunga muvofiq Y.D.Apresyan lug‘atlar definitsiyasiga qo‘sishimcha belgilar, ya’ni iboli-yumshoq (vejlivoe), qo‘pol (vulgarnoe-gruboe), kinoyaviy (ironicheskoe), erkalovchi (laskatelnoe), noma’qul (neodobritelnoe), quvnoqi (rezrvitelnoe), bee’tibor (prenebrejitelnoe), hazilomuz (shutlivoe), eifeministik (evfemisticheskoe) singari pragmatik-stilistik belgilar kiritishni taklif qiladi. [Apresyan, 1995:145]. Bu orqali pragmatik ma’no ifodalovchi lisoniy birliklarning emotsional-ekspressiv ta’sirini o’rganish borasida yangi bir pragmatik yo‘nalishga asos solindi. Har qanday lisoniy birlikning nutq (matn) ichidagi pragmatik (konnotativ) potensialini (ta’sir darajasini) tadqiq qilish, pragmatik komponentlarini aniqlash og‘zaki yoki yozma nutqda o‘z ifodasini topgan, matnga murojaat qilishni taqozo qiladi. Til hodisalarini matn tarkibida, turli xajmdagi nutq kesimlari orqali tahlil qilish kitobxonni ijodiy intuitsiya (his qilish, sezish) orqali so‘z, ibora va jumla, kontekstda ifodalangan qo‘sishimcha axborotlarni anglashga yordam beradi. Lisoniy birliklarning jumladan, matnda, kontekstda bunday funnksiyaga kirishuvi nafaqat ularning so‘zlar qurshovidagi ma’nosini ochish vositasi bo‘lib, balki yangi yasama birliklarni yaratishda va ularni anglashda inson tafakkurining harakatga keltiruvchi vositalari sifatida talqin qilinadi. Har qanday konkret fikrda nutqning pragmatik (egotsentrik- shaxsnинг o‘zligini xarakterlovchi) komponentlari mavjud deyish mumkin [Bobrova 1991]. Egotsentrik so‘zlar gapiruvchi shaxs tomonidan tilni o‘zlashtirganlik darajasini bildiradi va shu sababli ular pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Bunda so‘zning «lug‘aviy» ma’nosini ifodalanmishning mazmunini aniqlash uchun xizmat qilsa, kontekstual ma’nosini material ifodalangan belgining intensionalligini, ya’ni biror maqsadga yo‘naltirilganligini, konkret predmetga aloqadorligini bildirib keladi. Binobarin, fikrning semantik-sintaktik qurilishi umumiyl holda gapiruvchi shaxsnинг kognitiv bilimi va kommunikativ maqsadlarini o‘z ichiga oluvchi pragmatik tajribasini aks ettiradi. Moddiy mazmun esa (tajriba orqali to‘plangan ekvivalent tushunchalar, uning xususiyatlari va ular orasidagi aloqadorlik) avvalgi va keyingi kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan fikrning leksik-grammatik belgilari orqali to‘ldiriladi. Hozirgi paytda matn nutqning yozma voqelanishidagi asosiy omili, muayyan ijtimoiy tajriba mahsuli sifatida tilshunoslikning asosiy tadqiqot ob‘ektiga aylangan bo‘lsa-da, yakuniy nutq aktining shakllanish jarayoni etarli darajada o‘rganilmagan. Masalan, lingvistik tadqiqotlarda shaxsnинг bilimlar zaxirasining kommunikatsiya jarayoniga ta’siri masalasi haligacha chuqur va atroficha tadqiq qilinmagan[Makarov, 1996]. Shu nuqtai nazardan turli diskurslarda pragmatik omillarning fikrning tematik va rematik qismlari joylashuviga ta’sirini tahlil qilish, shuningdek nutqni tashkil qilishda lisoniy vositalarni tejash masalasi ham atroficha tadqiq qilinmagan muammolardan biridir. Bu o‘rinda nutqdagi ayrim axborotlar muloqot ishtirokchilarining har biriga tanish bo‘lishi mumkinligi bois, u implitsit ifodlanishi yoki umuman tushirib qoldirilishi mumkin. Aynan mana shu hodisa nutqdagi «ko‘rinmas», ba’zan ilg‘ab bo‘lmaydigan ma’no - mazmunni vujudga kelishiga olib keladi. [Makarova, 1996]. Hozirgi zamon tilshunosligida leksik birliklar semantikasi tarkibidagi konnotatsiya orqali

ifodalangan pragmatik ma’no T.V.Lixovidova (1978), N.D. Arutyunova (1979), Termin (1985), V.N.Teliya (1986), Y.D.Apresyan (1995), A.N.Vstavskiy (2006) va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha o’rganilgan.

Bunday tadqiqotlarda leksik birlik orqali ifodalanuvchi konnotatsiyaning pragmatik xususiyatlari inson faoliyatining bilishga oid o‘ziga xos komponenti sifatida birinchidan, lisoniy belgilarning muloqotda, nutqda baholovchi funksiyalarda qo‘llanilishi, ikkinchidan xorijiy tillarda muloqot qilishga o‘rgatishda muhim vosita vazifasini bajarishi ta’kidlanadi.

Tadqiqotlarida konnotatsiya yakka lisoniy birlik, frazeologik birikmalar, milliy realiyalar orqali voqelanishi, bunda ingegrent, agderent kontseptual, matn hosil qiluvechi konnotatsiya turlari va ularning pragmatik xususiyatlari alohida ajratlib o’rganiladi.

Leksik birlikning konnotativ komponenti deyilganida odatda shu tilda gapiruvchi shaxsnинг ongida shakllangan odamlarga, voqeа-hodisalarga nisbatan subyektiv munosabati tushuniladi. Bunday munosabat lisoniy birliklar orqali ifodalanib, nutqda obyektga nisbatan yaxshi, yomon, yoki neytral pragmatik munosabatni belgilab keladi. Kishilarning real borliq obyektlariga baholovchi munosabatlari til sistemasida, jumladan shu tilning leksik birliklarida pragmatik munosabatlar sifatida o‘z ifodasini topadi. So‘z leksik ma’nosining baholovchi komponentlarini pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganilishi qator yechimini topmagan bahstalab muammolarni o‘rganilishini taqozo qildi. Shu nuqtayi nazardan leksik birlikning pragmatik ma’nosidagi baholovchi komponentining xillarini, tiplarini aniqlash, ularni semantik komponent sifatida leksik birlik ma’nosida ishtirokini o‘rganish tilshunoslar, tarjimonlar, metodist o‘qituvchilar uchun ham g‘oyat muhimdir. Voqelik yoki predmetlarni baholashda gapiruvchi shaxsnинг ijtimoiy xarakterdagи pragmatik munosabatlari ham ishtirok etadi. Bunday munosabat odatda me’yor tushunchalariga, jamiyatda shakllangan muayyan qoidalarga rioya qilishni taqozo qiladi. Lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan pragmatik konnotatsiyaning baholovchi komponentining ikki tipi mavjud:

1. Atrof-muhitni, subyektni, sifatni, fazilatni, xodisalarni ratsional (intellektual) baholash;

2. ularni inson psixikasi ishtiroki yordamida emotsiyalni baholash.

Ratsional baholash so‘z manosini detonativ aspektda voqelanishi natijasida hosil qilinadi. Emotsional baholash esa, so‘z ma’nosini baholovchi semalarini konnotativ aspektda voqelanish natijasidir. So‘z manosining pragmatik ifodalangan konnotativ komponentlari o‘zaro bir-birlari bilan integratsiyalashgan, ya’ni doimiy aloqada, ammo ularning har birining miqdoriy o‘ziga xosliklari mavjud. Baholash konnotatsiyaning boshqa komponentlari bilan birga so‘z ma’nosining ekspressivligini (pragmatik ta’sirini) oshirishga xizmat qiladi va aynan ular kommunikativ aktda subyektiv munosabatlarni yanada ta’sirchan, juda ifodalash uchun xizmat qiladi. Ekspressivlik shu jihatni bilan so‘z ma’nosining pragmatik komponenti hisoblanadi va u muloqot jarayonida so‘z tanlash, uni muloqot vaziyatiga ko‘ra qo‘llash va bu orqali suhabatdoshga kommunikativ ta’sir etishni ko‘zda ko‘zda tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:



1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” ги 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармони.
<https://lex.uz/docs/5058351>.
2. Mamatov A.E. Grammatik va semantik muammolar hamda ularning qiyosiy-tipologik tadqiqi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Samarqand, 2015, - B. 12-13.
3. Yuldasheva D.N. O`zbek tilini o`qitish metodikasi (OO`MTV tasdiqlagan darslik).— Buxoro: Durdona, 2021.— 445 b.